Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

TARJIMANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA TEXNOLOGIYALARI

03 October 2026

UDK 81’25

Leksik-grammatik transformatsiyalarning badiiy tarjimada aks etishi: Xemingueyning “To Have and Have Not” romani o‘zbekcha tarjimasi misolida

Sherzodbek Saforboyevich Sardorbekov*

Urganch davlat universiteti

✉ sardorbekovsherzodbek@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada ingliz tilidan o‘zbek tiliga badiiy tarjimada leksik-grammatik transformatsiyalarning namoyon bo‘lishi Ernest Xemingueyning “To Have and Have Not” romani va uning K. Yusupova qilgan o‘zbekcha tarjimasi (2023) misolida tahlil qilinadi. Tadqiqot maqsadi – asliyat va tarjima matnini qiyoslab, ikki tilning tipologik farqi tufayli yuzaga keladigan transformatsiyalarning asosiy turlarini aniqlash hamda ularning tarjimadagi vazifasini ochib berishdir. Tahlil romandan olingan jumla juftliklari asosida transpozitsiya, gap bo‘laklari o‘rin almashinishi, kompensatsiya, eksplikatsiya va antonimik tarjima misolida olib borildi va har bir tur aniq misollar bilan asoslandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, transpozitsiya va so‘z tartibining o‘zgarishi ko‘pincha tizimiy zaruratdan kelib chiqadi, kompensatsiya va eksplikatsiya esa tarjimonning ongli tanlovi bilan bog‘liq; antonimik tarjimaning kam uchrashi muallif uslubining ta’siridan dalolat beradi. Bundan tashqari, ko‘p komponentli analitik konstruksiyaning bitta agglyutinativ so‘z shakliga siqilishini ifodalovchi grammatik-morfologik kondensatsiya transformatsiyasi alohida tur sifatida asoslandi. Kuzatishlar bir jumla doirasida odatda bir necha transformatsiya birgalikda amal qilishini, leksik-grammatik sathda esa tizimiy omil yetakchilik qilishini, leksika va uslubga yaqinlashgan sari tarjimonning tanlov erkinligi kengayishini ko‘rsatdi. Xulosalar tarjima tanqidida va tarjimashunoslikni o‘qitishda qo‘llanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar

tarjima transformatsiyasi, leksik-grammatik transformatsiya, transpozitsiya, kompensatsiya, badiiy tarjima

DOI: 10.5281/zenodo.23278415

Kirish/ Introduction/ Введение

Ingliz va o‘zbek tillari qurilishi jihatidan bir-biridan uzoq: birinchisida grammatik ma’nolar asosan yordamchi so‘zlar va so‘z tartibi orqali, ikkinchisida esa so‘zga qo‘shiladigan affikslar orqali ifodalanadi. Shu sababli badiiy tarjimada asliyatdagi shaklni aynan ko‘chirib bo‘lmaydi va tarjimon o‘zgartirishlarga – transformatsiyalarga – murojaat qilishga majbur bo‘ladi. Bunday o‘zgartirishlar orasida bir vaqtning o‘zida ham so‘z ma’nosiga, ham grammatik shaklga taalluqli bo‘lganlari – leksik-grammatik transformatsiyalar – ayniqsa murakkab hisoblanadi.

Tarjima transformatsiyalari nazariyasi Vinay va Darbelnet [1], Catford [2], Barxudarov [3], Retsker [4] va Komissarov [5] ishlarida asoslangan; o‘zbek tarjimashunosligida G‘ofurov, Mo‘minov va Qambarov [6] transformatsiyalarni leksik va grammatik guruhlarga ajratgan. Bu tasniflarda transpozitsiya, kompensatsiya, eksplikatsiya va antonimik tarjima keng e’tirof etilgan tayanch turlar sifatida qayd etiladi. Biroq ingliz–o‘zbek tarjima juftligida, ayniqsa Xeminguey kabi minimalist uslubdagi muallif asari materialida, bu turlarning amalda qanday namoyon bo‘lishi va o‘zaro ta’siri kam yoritilgan.

Tadqiqotning maqsadi – Xemingueyning “To Have and Have Not” romani va uning o‘zbekcha tarjimasi materialida leksik-grammatik transformatsiyalarning asosiy turlarini aniqlash, ularning vazifasini ochib berish hamda ularning kompleks qo‘llanilishini ko‘rsatishdan iborat.

Materiallar va usullar/ Material and methods/ Материалы и методы

Tadqiqot ob’ekti sifatida Xemingueyning “To Have and Have Not” romani [7] va uning K. Yusupova tomonidan qilingan «Тўққилик ва йўққилик» nomli o‘zbekcha tarjimasi [8] olindi. Tahlilda qiyosiy-chog‘ishtirma usul (asliyat va tarjima jumlalarini ketma-ket solishtirish), tarjimaviy tahlil (transformatsiya turi va uning sababini aniqlash) hamda tavsifiy usuldan foydalanildi. Nazariy apparat sifatida Barxudarov [3], Komissarov [5] hamda G‘ofurov va hammualliflari [6] tasniflaridagi umumiy tayanch turlar – transpozitsiya, so‘z tartibining o‘zgarishi, kompensatsiya, eksplikatsiya va antonimik tarjima – tanlandi. Har bir transformatsiyaning sababi tizimiy, me’yoriy-uzual, uslubiy va pragmatik-madaniy omillar nuqtai nazaridan baholandi.

Natijalar va muhokama/ Results and discussion/ Результаты и обсуждение

Ingliz tili analitik, o‘zbek tili esa agglyutinativ qurilishga ega: “in the house” birikmasi o‘zbek tilida bitta so‘z – «уйда» – bilan beriladi. Bu farq leksik-grammatik transformatsiyalardan ingliz–o‘zbek tarjimasida qochib bo‘lmasligini isbotlaydi. Roman materiali quyidagi manzarani ko‘rsatdi.

Transpozitsiya. Transpozitsiya – til birligining so‘z turkumi, grammatik kategoriyasi yoki sintaktik vazifasi o‘zgarishi bo‘lib, umumiy ma’no saqlanadi [1]. Romanda u eng faol tur bo‘lib, uch ko‘rinishda uchraydi. Birinchisi – sintaktik konstruksiyaning morfologik birlikka o‘tishi. Harry Morgan kubalik bilan suhbatlashadigan lavhadagi “Don’t be so tough so early in the morning” jumlasida to‘rt so‘zli “so early in the morning” birikmasi tarjimada bitta hosila so‘z – «саҳарлабдан» (саҳар + лаб + дан) – bilan berilgan: «Саҳарлабдан одамнинг асабини бузма». Ikkinchisi – fe’l zamoni kategoriyasi: o‘zbek tilida Present Perfect shakli (“you’ve cut”)ning to‘g‘ridan-to‘g‘ri morfologik ekvivalenti bo‘lmagani uchun «пичоқ тортгансан» shakli tanlangan. Uchinchisi – so‘z turkumi: yarador Uesli gapidagi predikativ sifat (“I’m cold”) «совқотиб кетдим» qo‘shma fe’li bilan berilgan, ya’ni ingliz tilining nominal-predikativ tuzilmasi o‘zbek tilining verbal tuzilmasiga aylangan.

Gap bo‘laklarining o‘rin almashinishi. Ingliz tilida asosiy tartib ega – kesim – to‘ldiruvchi (SVO), o‘zbek tilida esa ega – to‘ldiruvchi – kesim (SOV) bo‘lgani uchun deyarli har bir jumla qayta quriladi: “I lost three hundred” → «Мен уч юз долларимни бой бердим». Kesim jumla oxiriga ko‘chadi, natija esa o‘zbek tili uchun tabiiy jaranglaydi, shu sababli bu transformatsiya ko‘pincha “ko‘rinmas” bo‘lib qoladi. Muallif remarkasida (“The jackpot,” said Henry Carpenter) kesim egadan oldin kelishi tarjimada ham saqlangan, biroq neytral “said” fe’li «афсусланди» shaklida konkretlashtirilgan – ya’ni bir sintaktik birlikda grammatik va leksik o‘zgarish birikkan.

Kompensatsiya va eksplikatsiya. Kompensatsiya – bir joyda yo‘qolgan ma’noviy yoki uslubiy unsurni boshqa joyda yoki boshqa vosita bilan qoplash. Masalan, “I’m sure you’ve cut plenty people’s throats” jumlasida neytral “plenty” obrazli «бир дунё» birikmasi bilan berilib, so‘zlashuv ohangi tiklangan; “a machine … that doesn’t give jackpots anymore” ifodasidagi ixcham “jackpots” esa «омад ва муваффақият» juftligi bilan kengaytirilgan. Eksplikatsiyada asliyatda yashirin ma’no tarjimada oshkor qilinadi: “three hundred” tarjimada «уч юз доллар» bo‘lib qolgan, amerikacha realiya “highball” esa «хайбол» tarzida transliteratsiya qilinib, sahifa ostidagi izoh bilan tushuntirilgan. Bu holda realiyani saqlash va o‘quvchiga tushunarli qilish uyg‘unlashgan.

Antonimik tarjima. Bu tur romanda kam uchraydi. Xemingueyning kesik, qisqa jumlalari ko‘pincha grammatik qutbi saqlangan holda o‘giriladi: “Never mind the boat” → «Қайиқ ҳақида ўйлама», ya’ni inkor shakli inkor bilan berilgan. Bundan ma’lum turdagi transformatsiyaning chastotasi muallif uslubiga bog‘liq degan xulosa kelib chiqadi: minimalist “quruq” uslub antonimik almashtirishga kam imkon qoldiradi.

Grammatik-morfologik kondensatsiya. Transpozitsiya materialini tahlil qilish jarayonida yana bir qonuniyat ajratildi: ko‘p komponentli analitik konstruksiya (predlogli birikma, perifrastik yoki predikativ birikma) o‘zbek tilida bitta ko‘p morfemali so‘zga siqiladi. Bu hodisani grammatik-morfologik kondensatsiya transformatsiyasi (GMKT) deb atadik: “so early in the morning” → «саҳарлабдан», “I’m cold” → «совқотиб кетдим».

Kondensatsiya oddiy transpozitsiyadan farq qiladi: transpozitsiyada birliklar soni nisbatan saqlanadi, kondensatsiyada esa ko‘p birlik bittaga siqiladi. Bu hodisa Catfordning birlik transformatsiyasi (unit shift) [2] bilan shakl jihatidan yaqin, ammo undan farqli o‘laroq, ichki mexanizmni – analitik “qadoqlash”ning affikslar zanjiriga almashishini – ko‘rsatadi; matn hajmini semantik unsurni tushirib qoldirish hisobiga qisqartiruvchi kompressiyadan farqli ravishda esa semantik tarkib to‘liq saqlanadi. GMKT analitik tildan agglyutinativ tilga tarjimada tizimli yuzaga keladi, teskari yo‘nalishda esa dekondensatsiya kuzatiladi. Majburiylik jihatidan GMKT bir jinsli emas: “I’m cold” holatida o‘zbek tili me’yori fe’l shaklini talab qiladi, “so early in the morning” holatida esa analitik muqobil mavjud bo‘lsa-da, tarjimon ixcham shaklni uslubiy maqsadda tanlagan.

Kompleks qo‘llanilish. Real tarjimada bu transformatsiyalar kamdan-kam yakka amal qiladi. Yuqoridagi “Don’t be so tough so early in the morning” jumlasida kamida uchta jarayon birga ishlaydi: “so early in the morning” konstruksiyasi GMKT orqali «саҳарлабдан»га siqiladi; “so tough” ma’nosi «асабини бузма» tarzida modulyatsiya orqali qayta shakllantiriladi; kesim jumla oxiriga ko‘chib, SVO tartibi SOV ga o‘tadi. Demak, tarjima birligi ko‘pincha alohida so‘z emas, gap yoki ibora darajasidagi yaxlitlikdir, leksik-grammatik va leksik-semantik transformatsiyalar orasidagi chegara esa amalda shartli bo‘lib qoladi. Tahlil qilingan turlar 1-jadvalda umumlashtirilgan.

Transformatsiya turi	Roman materialidagi misol	Yetakchi omil
Transpozitsiya	“I’m cold” → «совқотиб кетдим»; “you’ve cut” → «пичоқ тортгансан»	tizimiy
Gap bo‘laklarining o‘rin almashinishi	“I lost three hundred” → «Мен уч юз долларимни бой бердим»	tizimiy
Kompensatsiya	“plenty” → «бир дунё»; “jackpots” → «омад ва муваффақият»	me’yoriy-uzual, uslubiy
Eksplikatsiya	“highball” → «хайбол» + izoh; “three hundred” → «уч юз доллар»	pragmatik-madaniy
Antonimik tarjima	kam uchraydi; “Never mind the boat” → «Қайиқ ҳақида ўйлама» (qutb saqlangan)	uslubiy (cheklovchi)
GMKT	“so early in the morning” → «саҳарлабдан»	tizimiy (+ uslubiy)

1-jadval. Leksik-grammatik transformatsiya turlari va ularning yetakchi omillari.

Jadvaldan ko‘rinadiki, leksik-grammatik sathda tizimiy omil yetakchilik qiladi: grammatikaga yaqinlashgan sari transformatsiyalarning majburiylik darajasi ortadi, leksika va uslubga yaqinlashgan sari esa tarjimonning tanlov erkinligi kengayadi.

Xulosa/ Conclusion/ Заключение

Tahlil quyidagilarni ko‘rsatdi. Birinchidan, ingliz tilining analitik, o‘zbek tilining agglyutinativ qurilishi transpozitsiya va gap bo‘laklarining o‘rin almashinishini eng faol va tizimli transformatsiyalarga aylantiradi. Ikkinchidan, kompensatsiya va eksplikatsiya tarjimonning ongli qarori bilan bog‘liq bo‘lib, yo‘qolgan ekspressivlikni tiklash va madaniy tafovutni to‘ldirish vazifasini bajaradi. Uchinchidan, antonimik tarjimaning kam uchrashi transformatsiya chastotasi mualliflif uslubiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. To‘rtinchidan, grammatik-morfologik kondensatsiya ingliz–o‘zbek tarjima juftligiga xos tipologik qonuniyat sifatida ajratildi va Catfordning birlik transformatsiyasi hamda kompressiyadan farqlandi. Beshinchidan, transformatsiyalar bir jumla doirasida kompleks amal qilishi tarjima sifatini alohida so‘zlar emas, transformatsiyalar uyg‘unligi bo‘yicha baholash zarurligini ko‘rsatadi. Natijalar tarjima tanqidida va tarjimashunoslikni o‘qitishda foydalanilishi mumkin; kelgusida ularni boshqa asarlar va til juftliklari materialida sinash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Vinay J.-P., Darbelnet J. Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation. — Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1995.

[2] Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation. — Oxford: Oxford University Press, 1965.

[3] Бархударов Л.С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. — Москва: Международные отношения, 1975.

[4] Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. — Москва: Международные отношения, 1974.

[5] Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). — Москва: Высшая школа, 1990.

[6] Ғофуров И., Мўминов О., Қамбаров Н. Таржима назарияси: Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма. — Тошкент: Тафаккур бўстони, 2012.

[7] Hemingway E. To Have and Have Not. — Toronto: HarperPerennial Classics, 2012.

[8] Юсупова К. [тарж.] Тўқчилик ва йўқчилик. — Тошкент: Олтин қалам нашриёти, 2023.